

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....	336
<b>M.Q.Tolibboyev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar .....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....	361
<b>A.O.Toirov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
<b>P.A.Nabiyev</b>	
"Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili .....	378
<b>P.A.Арслонзода</b>	
Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....	424
<b>X.T.Мирзаев</b>	
Талқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....	449
<b>B.N.Isakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



UO‘K: 394(575.1)

**“FARG‘ONA VODIYSI TOJKLARINING FARZAND TUG‘ILISHI VA TO‘Y MAROSIMLARI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN URF-ODAT VA AN‘ANALARI (QORATEGIN TOJKLARI MISOLIDA)”****ОБЫЧАИ И ТРАДИЦИИ ТАДЖИКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ, СВЯЗАННЫЕ С РОЖДЕНИЕМ ДЕТЕЙ И СВАДЕБНЫМИ ОБРЯДАМИ (НА ПРИМЕРЕ ТАДЖИКОВ КАРАТЕГИНА)****CUSTOMS AND TRADITIONS OF TAJIKS OF THE FERGHANA VALLEY RELATED TO THE BIRTH OF CHILDREN AND WEDDING RITUALS (AS AN EXAMPLE OF TAJIKS KARATEGIN)****Nabiyev Parviz Akbarjonovich** 

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti Etnologiya va antropologiya markazi tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada bir necha asrlar mobaynida Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelib o‘rnashgan Qorategin tojiklarining kirib kelishlari tarixi va sabablari, ularning madaniyati, urf-odatlar, bayram va marosimlarining o‘tkazilish tartibi, ularning vodiydagi boshqa xalqlar bilan o‘zaro madaniy uyg‘unlashuvi jarayoni dala tadqiqotlari hamda manba va adabiyotlar asosida etnologik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, vodiydagi qorateginlik tojiklarning bola tug‘ilishi bilan bog‘liq bo‘lgan va to‘y marosimlarida uchraydigan o‘ziga xos urf-odatlar, ularning shakllanishiga sabab bo‘lgan tarixiy omillar, urf-odatlarini bajarishdan ko‘zlangan tog‘lik tojiklar tasavvuridagi maqsadlar va qarashlar hamda urf-odatlarining bugungi kunga kelib o‘zgarishlarga uchraganligi sabablari ilmiy tahlillar asosida qisqacha yoritilgan.

Tadqiqot doirasida tog‘lik tojiklar istiqomat qiluvchi Farg‘ona vodiysida joylashgan Bobochek, Shamsiko‘l, Chodak, Qizilqiyog kabi hududlarda o‘tkazilgan dala tadqiqotlari materiallari jalb qilingan. Bu dala tadqiqotlari asosan kuzatish, intervyu va anketa so‘rovnomalari olish usullari orqali bajarilgan bo‘lib, tadqiqotda ko‘rsatib o‘tilgan ilmiy xulosalar mazkur mateliallarga asoslanadi. Ushbu tadqiqot natijalari Farg‘ona vodiysida yashovchi qorateginlik tojiklarning mintaqada yashovchi boshqa xalqlar bilan asrlar mobaynida madaniy jihatdan uyg‘unlashuvi bilan birga muayyan darajada o‘ziga xos bo‘lgan jihatlarini ham saqlab qolganliklarini asoslab beradi.

**Аннотация**

В данной статье рассмотрены история и причины миграции каратегинских таджиков, поселившихся в Ферганской долине на протяжении нескольких столетий, их культура, традиции, процесс переселения, порядок празднований и обрядов, их взаимодействие с другими народами долины которое подвергается этнологическому анализу на основе полевых исследований, источников и литературы. Также рассмотрены специфические традиции каратегинских таджиков долины, связанные с деторождением и свадебными обрядами, исторические факторы, обусловившие их формирование, и намерение исполнять традиции горских таджиков. Причины изменения целей и представлений и обычаев в современности кратко объяснены на основе научного анализа.

В рамках исследования были задействованы материалы полевых исследований, проведенных в Бобоचेке, Шамсиколе, Чодаке, Кызылкияке, которые расположены в Ферганской долине, где проживают горные таджики. Эти полевые исследования в основном проводились методом наблюдения, интервью и анкетирования. Научные выводы представленные в исследовании, основаны на этих материалах. Результаты данного исследования доказывают, что каратегинские таджики, проживающие в Ферганской долине, на протяжении веков культурно интегрированы с другими народами, проживающими в этом регионе, а также в определенной степени они сохранили свою особенность.

**Abstract**

This article delves into the historical and cultural aspects of the migration of the Tajik people of Qarategin to the Fergana Valley over several centuries. It also examines their migration history and reasons, cultural practices, customs, and the order of their celebrations and rituals, as well as the process of their cultural adaptation with other ethnic groups in the valley, based on ethnological investigations and sources in academic literature. Furthermore, it analyzes, from an ethnological perspective, the unique customs and traditions of the Qarategin Tajiks related to childbirth and wedding ceremonies, the historical factors contributing to their formation, their goals and perceptions reflected in the execution of

these customs, and the reasons for the contemporary changes in these traditions. Research within the scope of this study collected materials from the regions of Bobochek, Shamsiko'l, Chodak, and Qizilqiyoc in the Fergana Valley where Tajik communities reside, mainly through observation, interviews, and questionnaire surveys. The scientific conclusions drawn from this research are based on the data obtained from these materials. The findings of this study underscore the cultural integration of Qarategin Tajiks, living in the Fergana Valley, with other communities over centuries, emphasizing their distinctive features and aspects that have persisted through time.

**Kalit so'zlar:** Tog'lik tojiklar, qarateginlik, Shamsiko'l, Bobochek, tanga olish, migratsion jarayonlar, go'shtingir, Shomuborak, quloq cho'zish.

**Ключевые слова:** Горные таджики, каратегинци, Шамсикул, Бобочек, брать монеты, миграционные процессы, гоштингир, шомуборак, вытягивание ушей.

**Key words:** Mountainous Tajiks, Korategins, Shamsiko'l, Bobochek, currency acquisition, migration processes, meat drying, shomuborak, ear-piercing.

## KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlari qadimdan yagona madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik muhitda hayot kechirib kelganlar. Ushbu xalqlar ichida tojik xalqi ham mavjud bo'lib, ular mintaqaning deyarli barcha davlatlari hududida istiqomat qilishadi. Jumladan, mintaqaning 3 ta respublikasi (O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston) hududlarida joylashgan Farg'ona vodiysida ham tojiklarning salmog'i anchayin yuqori hisoblanadi. Ushbu hududda istiqomat qiluvchi xalqlar ichida tojiklar nufusi jihatdan o'zbeklardan keyingi o'rinda turadi. Shunday ekan, ularning urf-odatlarini, madaniyati, turmush tarzi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganish hamda bu kabi jihatlarni qiyosiy tahlil qilish antropologiya va etnologiya fan sohalarining muhim tadqiqot obyektlaridan biridir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani yozishda mavzuga doir tarixiy manbalar va adabiyotlar bilan tanishib chiqildi hamda ular asosida olingan fikrlar va xulosalar maqolada ifodalandi. Shuningdek, mazkur maqolani shakllantirishda etnografik dala tadqiqotlarining kuzatish, suhbat usullaridan, qolaversa, tarixiy tizimlilik, qiyosiy tahlil va sintez kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Tojiklar nafaqat keng va obod vodiylarda, shu bilan birga tog'larda va tog' etaklarida ham yashashadi [1.290]. Bu geografik turfa xillilik esa Farg'ona vodiysi tojiklari turmush tarzining rang-barangligini ta'minlagan asosiy omillardandir.

Tojiklar Farg'ona vodiysi shahar va qishloqlarining keng hududlari bo'ylab uzoq vaqtlardan buyon yashab kelishgan. Bu borada fikrimizni tasdiqlovchi nafaqat tarixiy manbalar, balki arxiv materiallari va davriy nashrlarda ham bir qator ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Xususan, 1915-yili nashr qilingan Rossiya imperiyasi Geografiya jamiyatining axborotnomasida Farg'ona vodiysining Namangan uyezdida tojiklar istiqomat qiluvchi hududlar ro'yxati keltirilgan [2.1,2]. Unda uyezdagi tojiklar istiqomat qiluvchi 39 ta shahar va qishloqlarning nomi keltirilib, ularda 13266 ta tojiklar yashaydigan xonadonlar qayd qilingan. Bu xonadonlarda jami 77135 nafar aholi istiqomat qilib, ulardan 41051 nafari erkaklar, 36084 nafari ayollar ekanligi qayd qilingan. Farg'ona vodiysining avtaxton (mahalliy) aholisi tarkibida tojiklarning ulushi avvaldan salmoqli bo'lganligini birgina Namangan uyezdi misolida yuqorida keltirib o'tilgan raqamlardan ham bilishimiz mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlash o'rinliki, hozirga kelib yuqoridagi shahar va qishloqlarning ayrimlarida (masalan Qayirma, Yorqishloq hududlarida) tojiklar deyarli qolmagan. Ular XX asrning o'rtalarida o'z jamoalari bilan tojiklar yashaydigan boshqa hududlarga ko'chib o'tishgan. Tojiklar vodiyni turli geografik sharoitlarida yashaganliklari tufayli ularning an'anaviy turmush tarzi va marosimlarida birmuncha farqlarni uchratish mumkin. Xususan, mavzu doirasida amalga oshirilgan dala tadqiqotlariga asoslansak, Andijon viloyati Shahrixon tumani Bobochek qishlog'i tojiklari hamda Namangan viloyati Pop tumani Chodak qishlog'i tojiklari an'anaviy turmush tarzi va marosimlaridagi umumiy jihatlar bilan birgalikda qator farqlar ham ko'zga tashlandi.

Farg'ona vodiysida tojiklar istiqomat qiluvchi hududlarda olib borilgan dala tadqiqotlarining guvohlik berishicha, hududda tojiklarning salmog'ini oshishiga o'zaro migratsion jarayonlar ham katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, ushbu migratsion jarayonlarning asosini Shimoliy Tojikistonning tog'lik hududlaridan Farg'ona vodiysining tekisliklariga ko'chib o'nashgan Qarategin va Matcho hududlari aholisi tashkil qiladi. Shuningdek, Farg'ona vodiysida Darvoz, Hisor, Ko'lob, Vaxan va boshqa tog'lik hududlardan ko'chib kelganlar Qarategin va Matcho hududlaridan ko'chib kelganlarga nisbatan ancha kam uchraydi [3.1]. Bu migratsion jarayonlar XV asr oxirlari XVI asr

## TARIX

boshlarida ham sodir bo'lgan bo'lsada [4.19], migratsion jarayonlarning jadallashuvi asosan XVIII asrda, ayniqsa, XIX – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Tog'lik tojiklar<sup>29</sup>ning Farg'ona vodiysi bo'ylab joylashuvlarida o'ziga xos uyg'unlik ko'zga tashlanadi. Ular asosan, Farg'ona vodiysining daryolari hamda turli suv manbalari (soylar, kanallar va boshqalar) havzalari bo'ylab joylashishgan bo'lib, ushbu hududlarning umumiy xususiyati ularning hali o'zlashtirilmaganligida edi.

Tog'lik tojiklarning hozirgi Shimoliy Tojikiston hududlaridan Farg'ona vodiysiga ko'chib kelishlariga asosan quyidagi omillar sabab bo'lgan:

– Birinchidan, Qo'qon xonligi tomonidan Xo'jand, Qorategin, Darvoz, Ko'lob hududlarining bosib olinishi natijasida, ushbu hududlar aholisi Qo'qon xonligi fuqarolariga aylanishdi. Natijada, Qo'qon xonligi qo'shinlari safi tog'li tojiklar bilan ham to'ldirila boshlandi. Xususan, Qo'qon xoni Madalixon davrida tog'li tojiklardan tashkil etilgan maxsus gvardiya tuzildi. Ushbu gvardiya askarlari o'z oilalari bilan yashashlari uchun Farg'ona vodiysi hududlaridan maxsus yerlar ajratilgan;

– Ikkinchidan, tog'lik tojiklar istiqomat qilgan hududlardagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy holat. Bunda, asosan, tog'lik tojiklarning dastlab Farg'ona vodiysiga ishlash maqsadida kelib, keyinchalik butunlay istiqomat qilish uchun ko'chib o'rtnashganliklarini ta'kidlash lozim;

– Uchinchidan, tog'lik tojiklar istiqomat qilgan hududlardagi mahalliy hukumdorlarning o'zaro ichki urushlari va notinch siyosiy vaziyat tufayli aholining bir qismi tinch hududlarni qidirib, Farg'ona vodiysiga ko'chib kelishga majbur bo'lishgan [3.2].

Yuqoridagi migratsion jarayonlar asnosida ko'chib kelgan tojiklarning vodiy xalqlari bilan madaniy jihatdan asta-sekin aralashuvi hodisasi yuz berdi. Xususan, vodiy o'zbeklari bilan juda yaqin madaniy aloqalar o'rnatildi. Shu bilan birgalikda, hozirgi kungacha ayrim marosim va urf-odatlarda etnomadaniy o'ziga xosliklar saqlab qolingan. Farg'ona vodiysining Andijon viloyati, Shahrixon tumani, Bobochek qishlog'ida olib borilgan dala tadqiqotlari davomida bu etnomadaniy o'ziga xosliklar yaqqol ko'zga tashlandi.

Ushbu hududda o'tkazilgan dala tadqiqotlarida axborotchilarning ma'lumot berishicha, ular hozirgi Tojikiston respublikasi hududi hisoblanuvchi Qorategin tog' tizmalaridan taxminan bundan 200 yil oldin (XVIII asr ikkinchi yarmi-XIX asr boshlarida) ko'chib kelishgan bo'lib, o'zlarini hozirgacha "qorateginliklar" deb atashadi [5]. Axborotchilardan bu hududga ko'chib kelish sabablari so'ralganda, dastlab ishlash maqsadida kelishgani, keyinchalik daryo bo'yi hududlarini o'zlashtirib muqim yashab qolishgani haqida ma'lumot berishdi [5]. Shu kabi ma'lumotlarni Qorategindan Farg'ona vodiysiga kelib o'rtnashgan boshqa hududlarda ham uchratdik. Xususan, Namangan viloyati, Namangan tumani, Shamsiko'l qishlog'ida yashovchi axborotchilar ham hozirgacha o'zlarini qorateginlik deb hisoblashadi, hamda ko'chib kelish sababi sifatida yuqoridagi kabi fikrlarni aytib o'tishdi [6].

Tadqiqot doirasida tojiklarning urf-odatlarini va marosimlarini quyidagicha guruhlariga bo'lib o'rgandik: Insonning tug'ilishi bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlar; xo'jalik faoliyati va kundalik turmush-tarzi bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlar; inson vafoti va dafn etilishi bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlar.

Farg'ona vodiysida istiqomat qiluvchi qorategin tojiklari xonadonida farzand tug'ilishi o'ziga xos yirik bayram sifatida nishonlangan. Homilador ayollarga alohida e'tibor ko'rsatilgan. Masalan, homiladorligi ma'lum bo'lgan ayolning ko'ylagi etagining ostiga tanga tikilgan. Bundan ko'zlangan maqsad homila ushbu tikilgan tanga kabi ayol qornida mustahkam o'rtnashishi va sog'-salomat dunyoga kelishi istagi nazarda tutilgan. Farzandni dunyoga keltirish vaqti ma'lum bo'lgach, homilador ayolning peshonasiga un sepilgan. Bunda unning "oqlik" xususiyati asosiy ramziy ma'no kasb etib, bo'lajak onaga oq yo'l tilash istagini o'zida mujassamlashtirgan [6]. Bola tug'ilganidan so'ng ma'lum bir muddat o'tgach, bolani yuvintirish marosimi o'tkaziladi. Axborotchilarning ma'lumot berishicha, ushbu marosimning o'tkazilish vaqti har xil bo'lib, tug'ilgan chaqaloqning taxminan 10-15 kunligida bajariladi. Buning uchun avvalo tog'oraga iliq suv quyilib, unga tuz va tuproq solinadi. Chunki tuz va tuproq bolaning nozik terisini qotiradi va turli xil yara-chaqalardan saqlaydi. Agar chaqaloq o'g'il bola bo'lsa, suvga tanga tashlanadi – toparmon-tutarmon bo'lsin deb, aksincha, chaqaloq qiz bola bo'lsa, suvga tilla taqinchoq tashlanadi – tilladek qadri va chiroyli

<sup>29</sup> Qorategin, Matcho, Darvoz, Hisor, Ko'lob, Vaxan kabi tog'li hududlardan ko'chib kelgan aholini Farg'ona vodiysida "tog'lik tojiklar" deb atashadi.

bo'lsin deb [6]. Ushbu hududda o'g'il farzand alohida qadrlangan bo'lib, o'g'il farzand ko'rganligi xushxabarini eshitgan ota xursandchiligini o'z xonadonining shiftiga bir hovuch tanga otish orqali nishonlagan. Vaqtlar o'tib ushbu farzand esini tanigach, ota teshilgan shiftni ko'rsatib, o'zining naqadar xursand bo'lganligini va o'g'ildan umidlari ko'p bo'lganligini bildirgan. Bu kabi odatlar oilada erkak kishining o'rni va mas'uliyati naqadar yuqori bo'lganligini namoyon qilgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, hozirga kelib ushbu odat bajarilmay qolgan.

Bolaning dastlabki qadamlarini qo'yishi Qorategin tojiklari uchun alohida ahamiyat kasb etib, unga atab maxsus kulchalar va o'yma (chalpak)lar tayyorlanib ehson tariqasida mazkur xonadondagi va qo'shnilarning kichik yoshdagi farzandlariga tarqatilgan [6]. Azaldan kulcha mintaqada istiqomat qiluvchi tojik va o'zbeklar tasavvurida farzand ramzi hisoblangan hamda dastlabki qadamlarini qo'yayotgan bolaning rizqli, nasibali bo'lishi niyat qilinib, oyoqlari orasidan dumalatilgan, shuningdek, bolaning tengdoshlariga ham tarqatilgan. O'ymaning tarqatilishida esa, bolaning dastlabki qadamlarini turli nazarlardan saqlash va ins-jinslardan himoya qilish maqsadi yotadi.

Farg'ona vodiysida istiqomat qiluvchi qorategin tojiklari uchun sunnat to'yiga eng muhim marosimlardan biri sifatida qaralgan. Mazkur to'ylarda turli xil musobaqalar, xalq o'yinlari va ziyofatlar tashkil etilgan. O'tkazilgan musobaqalar ichida xalq orasida "go'shtingir" deb ataluvchi kurash musobaqasi ahamiyatlidir. Chunki, tog'lik tojiklarning qadim an'alariga ko'ra xonadonning har bir erkagi kurashchi polvon sifatida tarbiyalangan. Bu omil sunnat to'ylaridagi kurash musobaqalarini murosasiz kechishini ta'minlagan. Xalq o'yinlaridan "quloq cho'zish", "arqon tortish", "tanga olish" kabi o'yinlar o'tkazilgan bo'lib, ular ichida "tanga olish" o'yini ko'pchilikning qiziqishiga sabab bo'lgan. Ushbu o'yinda tog'oroga suv to'ldirilib, unga qiymati baland bo'lgan tanga tashlangan. Tangaga ega chiqish uchun talabgorlar suvga boshlarini tiqib tog'ora tubidagi tangani tishlab olishlari talab etilgan. Sunnat to'ylarida xalqqa ziyofat berish uchun ot so'yish odati tog'lik tojiklar uchun muhim an'anaga aylangan. Ammo so'nggi paytlarda bu an'ana iqtisodiy omil tufayli o'zgarib, endilikda ot o'rniga buqa qurbonlik qilinmoqda [6]. Qorateginliklar uchun sunnat to'yining ahamiyati yuqori ekanligini o'z atrofidagi boshqa hududlar aholisi kabi qo'y emas, balki ancha qiymati baland hisoblangan ot yoki buqa qurbonlik qilinishi misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Xatna qilish marosimida ham qator o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, marosim quyidagi tartibda amalga oshirilgan. Usta (marosimni amalga oshiruvchi sartarosh) xonadonga kelgach, "to'y bola"ning yaqinlaridan hadya olish maqsadida bola yashiriladi. Bolaning amaki va tog'alaridan hadya olingach, bola usta oldiga olib chiqiladi. Jarayon boshlangach, bola ustadan qo'rqmayotganligini ko'rsatish uchun bolaning yaqinlari tomonidan avvaldan o'rgatilgan quyidagi so'zlarni ustaga qarab aytgan: "Hormang usta! Tuzlig'ingizda tuzingiz bormi? Bizga loyiq qizingiz bormi?" [5].

Umuman olganda, bolaning tug'ilishi bilan bog'liq bo'lgan marosim va urf-odatlar Farg'ona vodiysida istiqomat qiluvchi qorateginlik tojiklar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur marosimlarda vodiya istiqomat qiluvchi boshqa etnoslar bilan ayrim o'xshashliklar va umumiylik mavjud bo'lsa-da, aksariyat o'rinlarda tog'lik tojiklar o'zlarining qadimiy an'alarini saqlab qolishgan.

To'y marosimlari ichida nikoh to'yi inson hayotidagi muhim voqe'liklardan biri hisoblanadi. Nikoh to'ylari bilan bog'liq bo'lgan marosimlarda ham o'rganilayotgan hududda o'ziga xos urf-odatlar aniqlandi. Nikoh to'ylari bugungi kunda islomiy an'alar asosida o'tkazilib, xalq tilida "oq to'y" deb ataladi. Qorategin tojiklari nikoh to'ylarida bajariladigan o'ziga xos marosimlardan biri – "Shomuborak" ("Shohi muborak") marosimi hisoblanadi. Mazkur marosimda kuyov podshohga qiyoslanadi. Shuning uchun ushbu marosim "Shomuborak" (shohlik martabasi muborak bo'lsin degan ma'noda) deb nomlanadi. Bunda kuyov maxsus tayyorlangan "taxt"da o'tiradi. Sartarosh usta uning sochini ola boshlaydi. Bu jarayon davomida kuyov jo'ralar ularni aylana shaklda o'ragan holda xalq qo'shiqlaridan biri bo'lgan "Shomuborak"ni jo'r bo'lib kuylashadi. Ma'lumot o'rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki, XX asrning oxirlarigacha bo'lgan davrda kuyovning sochi to'liq olingan bo'lsa, bugungi kunda kuyovning sochi ramziy ma'nodagina kaltalanadi. Nima uchun aynan to'y kuni kuyovning sochi olinishi masalasiga kelsak, birinchidan, ushbu odatning shakllanishi musulmon shariati bilan bog'lanadi. Islom shariatiga ko'ra, nikoh o'qilishi jarayonida kuyov

## TARIX

sochining “arpa donidan uzun” bo’lishi ta’qiqlanganligi va xarom hisoblanganligi tojiklar marosimlari o’rganilgan etnografik tadqiqotlarda ko’rsatib o’tilgan [7.108].

Ikkinchidan, bu yigit kishining oila boshlig’i sifatida yangi hayotga qadam qo’yishi ma’nosini anglatadi. Ya’ni, sochning olinishi bilan inson ham ma’nan, ham jismonan “yangilanishi” va kuch-g’ayratga to’lishi nazarda tutilgan.

Tog’lik tojiklarda ham chimildiq muqaddas dargoh hisoblanib, u joylashgan xonaga ko’p nikohli insonlar, turmush o’rtog’i vafot etgan insonlar va uzoq yillik turmushi davomida farzand ko’rmagan insonlar kiritilmagan. Buning boisini ushbu kelin-kuyov taqdirida yuqorida ta’kidlangan insonlarning taqdiri takrorlanmasligi maqsadi bilan izohlash mumkin.

**XULOSA**

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Turkiston xalqlari madaniyatini tojik xalqi madaniyatidan ayro tasavvur qilib bo’lmaydi. Garchi tojiklar forsiyazon xalq bo’lishiga qaramay Turkistonning turkiy xalqlari bilan, xususan, o’zbeklar bilan birgalikda o’zaro uyg’un va yaxlit madaniyat yaratishdi. Bir necha mingyillik o’zaro qardoshlik aloqalari tojik va o’zbek xalqlari orasida yuqori darajadagi madaniy uyg’unlik va etnopsixologik yaqinlikni shakllantirdi. Ammo, Turkiston o’lkasini Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, keyinchalik sovet mustamlakasiga aylantirilishi, ayniqsa, 1924-1925-yillarda o’tkazilgan milliy hududiy chegaralanish o’lkaning yagona tamaddun sohiblari bo’lgan qardosh xalqlarini bir-birlaridan har taraflama yiroqlashtirishga, O’rta Osiyoning qadim madaniyatini Turkiston xalqlarining ko’pmingyillik umumiy madaniyati sifatida emas, balki ushbu madaniyat o’lkaning bir xalqi tomonidan yaratilganligi tog’risidagi nosog’lom qarashlar asosiy tadqiqot obyektiga aylantirildi. Mana shunday chirkin siyosiy muhitda ham Turkiston xalqlari o’zaro madaniy uyg’unlikni davom ettirdilar. Bunday umumiylik ayniqsa, Farg’ona vodiysi xalqlari turmush tarzida namoyon bo’ladi. O’lkada istiqomat qiluvchi har bir etnosning madaniyati, urf-odatlar va marosimlarida o’ziga xos jihatlari ham mavjud bo’lib, bu jihatlari o’rganilayotgan etnosning tabiiy geografik muhiti, hududdagi qo’shni xalqlar bilan o’zaro aloqalari, turmush tarzi, va diniy qarashlari asnosida shakllanganligini ko’rishimiz mumkin. Ushbu jihatlarga ko’ra Farg’ona vodiysiga ko’chib kelib o’rnashgan Qorategin tojiklari hozirgacha o’z madaniyatlari va urf-odatlarini muayyan darajada saqlab qolganlar.

Ushbu kichik tadqiqot doirasida quyidagi xulosalarga kelindi:

– Birinchidan, Qorategin tojiklarining tog’li hududdan Farg’ona vodiysining tekislik hududlariga tushishlari va muqim yashab qolishlari natijasida ularning yashash tarzi va xo’jalik faoliyatlarida qator o’zgarishlar yuz berdi;

– Ikkinchidan, tog’lik tojiklarning Markaziy Osiyoning eng aholisi zich joylashgan hududlariga ko’chib o’rnashishlari, ularning ayrim marosimlari va urf-odatlarini vodiyni tekislik qismida yashovchi aholisining islomiylashgan madaniyati ta’siri ostida transformatsiyalashuviga olib keldi;

– Uchinchidan, tog’lik tojiklar madaniyatining noyob jihati shundaki, ular Farg’ona vodiysi mahalliy aholisi madaniyati bilan o’zaro uyg’un madaniyat yaratibgina qolmay o’zlarining aksariyat madaniy o’ziga xosliklarini saqlab qola oldilar.

**ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Ashirov A.A. Etnologiya. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2014.
2. Известия. Туркестанскаго отдела Императорскаго Русскаго Географическаго Общества. Том XI. Вып.2. часть I. –Ташкент: Типо-Литография В.М.Ильина, 1915 г.
3. Губаева С.С. Горные таджики Каратегина в Ферганской долине (к.ХІХ - н.ХХ вв.) // Советская этнография. №1, 1987.
4. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Т., 1958
5. Dala tadqiqotlari materiallari. Andijon viloyati, Shahrixon tumani, Bobochek qishlog’i. 2022 yil.
6. Dala tadqiqotlari materiallari. Namangan viloyati, Namangan tumani, Shamsiko’l qishlog’i. 2022 yil
7. Мардонова А. Свадебное торжество у таджиков Файзабада // История и этнография народов Средней Азии (Сборник статей). –Душанбе: “Дониш”. 1981.